

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:17 (67182)  
2018-yil 23-aprel

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



## MAKTABGA TASHAKKURNOMA KELD

Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi 26-umumta'lim maktabiga poytaxtdan tashakkurnoma keldi. Nima uchun, deysizmi? O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi Qahramon Quronboyevdan ushbu ta'lim maskani 10-sinf o'quvchisi Buvixon Toshpo'latovning iqtidori va tashabbuskorligi uchun! O'zbekiston yoshlar ittifoqi Furqat tuman Kengashi «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi O. Qurbonov maktabga tashrif buyurib, juda xursand bo'ldi. Tashakkurnomada mazkur o'quvchining a'lo baholarga o'qishi, namunali xulqi va faolligida, iqtidori hamda tashabbuskor bo'lib voyaga yetishida ota-onasining, ta'lim maskani jamoasining ko'rsatgan jonbozligi alohida ta'kidlab o'tilgandi. Mamlakatimizda Buvixon Toshpo'latova kabi tashabbuskor va iqtidorli o'quvchilar ko'payversin!



- Buvixon maktabning bosh sardori sifatida o'tkazilayotgan barcha tadbirlar, tanlovlar, ijtimoiy loyihalarda jonbozlik ko'rsatmoqda. Qolaversa, u fan olimpiadalarida ham yuqori o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. U tumanimizning faxri! - deydi maktab rahbari Otabek Begmatov.

## OLIMPIADA CHEMPIONI - kitobxonlar davrasida

Aziz o'quvchilar! Og'ir atletika bo'yicha jahon va Olimpiya o'yinlari chempioni, dunyo rekordchisi, O'zbekiston iftixori Ruslan NURUDINOVni juda yaxshi taniysiz. Unga havas qilib, sport bilan muntazam shug'ullanayotgan, musobaqalarda ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritayotgan iqtidorli yoshlar juda ko'p. Agar Siz ham ular safida bo'lishni istasangiz, 3-sahifada chempionga bag'ishlangan maqolani o'qing.





«...Bu suratni hali tamom qilganim yo'q.  
Qanday chiqishini hozircha aytish qiyin. Har  
kuni tongda turib, xomaki etyudlarimni yana  
ikki-uch marta ko'zdan kechirarkanman,  
tong sukunatida o'yga cho'maman. Yo'q, hali  
ko'nglimdagini topganimcha yo'q, yana ancha  
ishi bor. Bu surat hali ko'ngildagi bir tilak,  
qalbimni hayajonga solgan orzu-umid, xolos...»

## CHINGIZ AYTMATOV VA O'ZBEKISTON



Bu o'y va ke-  
chinmalar sizlarga  
«Oq kema», «Qiyomat», «Sarvqomat  
dilbarim» singari  
asarlari bilan ta-  
nish bo'lgan Chingiz  
Aytmatovning «Birinci muallim»  
asaridan olingan.

Prezidentimiz  
Qaroriga binoan  
adabiyot olamida  
o'ziga xos yo'nalishda  
ijod qilgan, qahramonlarini  
goh

sokin, gohida keskin kechinmalar aro qoldirgan adibning  
90 yilligi bu yil O'zbekistonda keng nishonlanadi. Chingiz  
Aytmatov nafaqat qirg'iz, balki o'zbek kitobxonlarining  
ham sevimli adiblardan biri hisoblanadi. Qarorga binoan  
yozuvchiga ehtirom sifatida Toshkent viloyatining Parkent  
tumanidagi 33-umumta'lim maktabida uning byusti o'rnatiladi,  
shuningdek, Toshkent ko'chalaridan biriga adibning  
nomi beriladi va yil davomida yozuvchining hayoti va ijodiga  
bag'ishlab «Chingiz Aytmatov va O'zbekiston» nomli xotira  
kitobini nashrga tayyorlash, adibning asarlari asosida  
spektakl, badiiy film ishlanishi rejalashtirilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, adibning asarlari kishini  
o'yga toldiradi, hayotning mazmunini teran anglashga  
undaydi. Agar so'zlarimizga ishonmasangiz, unda, albatta,  
Ch. Aytmatovning birorta asarini o'qishga kirishing, bunga  
o'zingiz amin bo'lasiz.

Odina SAHOBIDDIN qizi

# SHOIRNING «TIRIKLIK QO'SHIG'I»

Gazetaning navbatdagi sonini nashr-  
ga tayyorlash jarayoni ketayotgandi.  
Tahririyatimiz eshigini astagina taqilla-  
tib, o'ttiz yoshlar atrofidagi istarasi issiq-  
qina ayol iymانبgina xonaga kirishga  
ruxsat so'radi. Salom-alikdan so'ng o'zini  
tanishtirdi:

— Men shoir Abrurahmon Akbarning qizi  
Sevinchman. Otamning kitobini chop et-  
gandik, «Tong yulduzi» o'quvchilariga ham  
ilininib, bittasini olib keldim. Otam bolalarni  
juda yaxshi ko'rardi. O'zi ham bolalardek  
beg'ubor edi, bu fazilatlarini yuz-ko'zlarida  
ufurib turardi. Ular nihoyatda rostgo'y,  
mehrlil, do'stlari aytganidek, chumoliga  
ham ozor bermaydigan inson bo'lgan.  
Ijodga, bolalarga mehri shunchalar kuchli  
ediki, hatto betob bo'lganlarida ham ijod  
qilishdan to'xtamadilar. Qisqa umri davomida  
bir-biridan ajoyib she'rlar, tarjimalar,  
ertaklar va rivoyatlar yozishga ulgurdi.  
Men shunday insonning farzandi bo'lgan-  
nimdan faxrlanaman, — deydi beixtiyor  
ko'zlarini yoshlanib.

Iste'dodli va kamtarin ijodkor Abdurah-  
mon Akbar Cho'lpon nomidagi nashriyot  
matbaa ijodiy uyida faoliyat yuritayotgan  
kezlari «Kitob bayrami» tadbirlari munosabati  
bilan ko'p bor birga xizmat safarlarida  
bo'lganmiz. U kishining betakror samimiyati-yu  
bolalarcha beg'uborligiga, atrofda qilargalarga  
bo'lgan cheksiz hurmatiga o'zim ham bir necha  
marta guvoh bo'lganman.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat  
xodimi, o'zbek bolalar she'riyatining yorqin  
vakillaridan biri bo'lgan Abdurahmon Akbarning

quvnoq she'rlari, jahon adabiyotidan qilgan  
tarjimalari bolajonlarimiz uchun ma'naviy  
xazina bo'lib qoldi.

Bugun esa o'quvchilarimiz uchun yana  
bir ajoyib tuhfa — «Cho'ntakdagi daraxt»  
kitobini qo'limga olarkanman, undagi «Jajji  
muxlis» she'rini o'qiyman:

**Eng sevimli gazetam,  
«Tong yulduzi» bo'ladi.  
O'qishni bilmasam ham,  
Ko'rib ko'nglim to'ladi.**

**Gazetaga ming rahmat —  
Suratimni etdi chop.  
Shoir otam men haqda,  
Endi yozmoqda kitob.**

**Gazetaga akalar,  
Obuna bo'ling, tezroq.  
Do'stlashsangiz men kabi,  
Kunlaringiz o'tar chog'i.**

**Inobatga olinglar,  
Ozodbekning so'zini,  
Tezroq o'qib beringlar,  
Menga «Tong yulduzi»nil**

Shoirning «Tiriklik qo'shig'i» nomli  
she'rini ham maroq bilan o'qiyman.  
She'rdagi satrlar meni o'ziga maftun  
etadi. Unda bir yigit «Eng soz qo'shiq,  
eng xushxon, hofizni izlab» yo'lga  
tushibdi.

**Guzarlarga bosh suqib,  
Kezibdi ovul, qishloq.  
Tinglabdi minglab qo'shiq,  
Bir-biridan go'zalroq.**

Har bir qo'shiqda «yurak tafti bor»ligi uchun  
ularning eng a'losini aniqlashga qiynalgan  
yigitga onasi shunday debdi:

**Har insonga Vatanda,  
Hamroh erur tilagi.  
Xushxon hofiz aslida,  
Bu — har kimning yuragi.**

**Xohla qo'shil, xohla yo'q,  
Onangning fikri budir:  
Dunyoda eng soz qo'shiq,  
Yurakning dukuridir!**

Garchi, bugun sevimli shoirimiz oramizda  
bo'lmasa-da, uning ijodi, yaratgan asarlari  
o'quvchi qalbida mangu yashaydi, quvnoq  
she'rlari, tili sodda, samimiy ertaklarini  
o'qigan har bir bolaning yuragini «duku-  
r»latib, dilini yayratib, qalbimni hayajonga  
solib turaveradi.

Feruza SOYIBJON qizi

**Yosh-  
larning kela-  
jakda mamlakatimiz  
taraqqiyotiga munosib hissa  
qo'shadigan yetuk kaadrlar  
bo'lib yetishishlariga ko'makla-  
shish maqsadida Toshkent viloyati,  
O'rta Chirchiq tuman Yoshlar itti-  
foqi Kengashi tomonidan «Ka-  
malak» bilimdonlari» tanlo-  
vining tuman bosqichi  
bo'lib o'tdi.**

mizning ko'p ekanligiga yana  
bir bor amin bo'ldim, — deydi  
«Kamalak» bolalar tashkiloti  
tuman Kengashi raisi Nodira  
Nabiyeva. — Iste'dodli o'quvchi-  
larni kashf etishda muhim omil  
bo'layotgan bu kabi tanlovlarni  
yanada ko'proq o'tkazish zarur.  
Zero, tashkilotimiz bolajonlarning  
eng yaqin hamrohi ekanligini  
his etishsin.

G'oliblar Yoshlar itti-  
foqi tuman Kengashi tomonidan  
kompyuter jamlanmasi, dip-  
lom va esdalik sovg'alari bilan  
taqdirlandi.



## BILIMDONLAR G'OLIB BO'LDI

Tanlovda tumandagi 5-, 8-, 17-, 54-, 58-, 72-umumta'lim  
maktablari jamoalari to'rtta shart bo'yicha bellashdi. Qizg'in va  
murosasiz tarzda kechgan bellashuvda 30-umumta'lim maktabi  
vakillari 1-o'rinni egallab, tanlovning viloyat bosqichiga yo'llan-  
mani qo'lga kiritdi.

— Ochig'i, har bir jamoaning chiqishi katta taassurot qoldirdi.  
Ushbu tanlov orqali tumanimizda iqtidorli, bilimli o'quvchilari-



## SARVAR NEGA YIG'LADI?

**Sinifdoshim Sarvar adabiyot fanidan hech ham she'ri yodlamaydi. O'qituvchimiz unga doim «3» baho qo'yadi. Sarvar esa bundan sira xafa bo'lmaydi.**

Tunov kuni adabiyot darsidan o'qituvchimiz yana she'ri yodlashni uyga vazifa qilib berdi. Qarangki, bu gal Sarvar she'ri to'liq yodlab kelibdi. U mening partadoshim bo'lgani uchun buni darrov payqadim. Axir kela solib «She'ri yodladingmi?» dedi-da.

Sarvarning gali kelganda, ustozning xayoli chalg'ib, unga «4» baho qo'ydi. Sinifdoshim «Men she'ri yaxshi aytdim-ku», deb norozi bo'ldi. Ustoz unga yana imkon berdi. Keyingi galda esa she'ri biroz tutilib aytdi. Ustoz esa uni tayyor bo'lib kelmagani uchun biroz koyidi. Sarvar esa bu holga chidolmay, yig'lab yubordi.

Buni ko'rib, biroz hayron bo'ldim, nega Sarvar yig'ladi ekan-a? Balki mehnat qilgani uchunmikin...

Nafisa QUDRATOVA,  
Jizzax viloyati, G'allaorol tuman  
«Barkamol avlod» bolalar markazi a'zosi

## KUTUBXONACHINING ZERIKISHGA VAQTI YO'Q

**Maktabimiz o'quvchilari o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ular qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish maqsadida kitob bayramlari o'tkazilmoqda.**

Jumladan, maktabning 1-4-sinf o'quvchilari o'rtasida «Kitobim – oftobim» haftalik tadbirlari, 5-9-sinf o'quvchilari o'rtasida esa «Adabiyot kunlari», «Kitob taqdimoti», «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» tadbirlari tashkil etildi. Ushbu tadbirlarda o'quvchilar o'z qobiliyati va iste'dodini sahna ko'rinishlari orqali namoyon etdi. Qolaversa, o'zbek shoirlarining hayoti va ijodi haqida va ular yozgan she'rlaridan yod aytib, yig'ilganlarning olqishiga sazovor bo'ldi. Ayniqsa, 7-sinf o'quvchisi Firdavs Fayzullayev, 8-sinf o'quvchisi Shahnoza Ismatova, 9-sinf o'quvchisi Marjona Mustafoyeva kabi kitobxon o'quvchilarning chiqishlari tadbir qatnashchilariga manzur bo'ldi. Tadbirdan so'ng kutubxonada faol kitobxon o'quvchilar soni yanada



ko'paydi. Qolaversa, ushbu ziyo maskanini milliy va jahon adabiyoti durdonalari bilan boyitish maqsadida «Maktab – kutubxona – oila – jamoat tashkilotlari» xayriya marafoni va «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» nomli aksiya o'tkazildi. Marafonda ota-onalar, jamoat tashkilotlari vakillari faol qatnashib, kutubxonaga ikki yuzdan ziyod kitob sovg'a qildi.

Gulbegim SHODIYEVA,  
Navoiy viloyati, Uchquduq tumanidagi  
7-umumta'lim maktabi kutubxonachisi

## TILSHUNOS OLIM fanga oid muammolar haqida so'zlashdi

Xalq ta'limi vazirining 2018-yil 6-yanvardagi «Aniq, tabiiy, gumanitar va filologiya fanlaridan tayanch maktablarni tashkil etish» to'g'risidagi buyrug'i asosida hududlarda fanlar bo'yicha harakatdagi o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmoqda. Bu esa umumta'lim maktabi o'qituvchilarining bilimni oshirish, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rganishga oid metod va usullar bilan tanishtirish, fanlar bo'yicha yaratilgan metodik qo'llanmalar, resurslardan o'quv jarayonida samarali foydalanishlarida yordam beradi.

Kuni kecha Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot hamda o'zbek tili fanlari bo'yicha navbatdagi o'quv seminari o'tkazildi. Tadbirda tilshunos olim Yormat Tojiyev ishtirok etdi. Ustoz hozirgi kunda tilshunoslikdagi muammolar, ularning yechimi haqida fikr bildirdi. «Ega va kesimning gapdagi vazifasi», «So'zlarning ma'no va shakl munosabatlariga ko'ra turlari», «Qo'shma gaplar turlari va ular o'rtasidagi o'xshash tomonlar va ularning o'zaro farqlari», «Lug'atlarning so'z boyligini oshirishdagi o'rni» mavzulari misollar yordamida tushuntirildi. O'qituvchi-

lar o'zlarini qiziqtirgan savollarga tegishli javoblar olishdi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, xususan, telegram tarmog'ida ochilgan @avloniy.uz,



@tayanch-maktab, @aniq-fan, @tabiiy-fan, @filologiya-fan kabi guruhlar orqali o'qituvchilarning ta'limiy yangiliklardan xabardor etish imkoniyati yaratilganligi yana bir bor ta'kidlandi.

Nodira NAZAROVA

## OLIMPIADA CHEMPIONI – kitobxonlar davrasida



Jahon chempioni Ruslan Nurudinov chempionlikning eng muhim sirlaridan birini aytdi.

**Aziz o'quvchilar! Orangizda sportga qiziqmaydigan, jahon chempioni yoki biror sport ustasiga havas qilmaydiganlar bo'lmasa kerak?! Qani endi, oynayi jahonda ko'rgan chempioningiz bilan yuzma-yuz ko'rishsangiz-u, undan o'zingizni qiziqtirgan savollarga javob olsangiz...**

Ana shunday istagingizni amalga oshirishni maqsad qilgan Respublika bolalar kutubxonasida ajoyib tadbir tashkil etildi. «Sport bu – sog'lom turmush» nomli uchrashuv qahramoni XXVII yozgi olimpiada o'yinlari chempioni Ruslan Nurudinov bo'ldi.

Tadbirda poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244- va Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirok etdi. O'quvchilar hayrat to'la nigohlari bilan sevimli sportchilarini kutib olishar ekan, davra qarsaklarga to'ldi. Ana shunday samimiy boshlangan suhbat avvalida Ruslan Nurudinovning ustozlari, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti o'qituvchisi Baxtiyor Karimovga so'z berildi. Murabbiy shogirdi haqida iliq fikrlarni bildirar ekan, bolajonlarni hamisha ishtiyiq va tirishqoq sportchi bo'lishga chorladi. Zero, chempionlikning eng muhim sirlaridan biri ham shunda-da! So'ng, navbat o'quvchilarga berilganida ushu bo'yicha O'zbekiston kubogi sovrindori, 244-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi Hikmatbek Rajabboyev og'ir

atletikachimizdan bolalik davri va sportga qiziqishiga sababchi bo'lgan insonlar haqida so'radi. Shunda Ruslan Nurudinov quyidagilarni so'zlab berdi:

– Men mustaqillik tengdoshiman. Bolaligim esa Andijonda o'tgan. Sportga qiziqishimga akalarim sababchi bo'lgan. Shu bilan birga, bolaligimda siz kabi og'ir tosh-u shtangalarni dast bilan ko'tarayotgan og'ir atletikachilarni ko'rib, ularga juda havasim kelgan. Xalqaro maydondagi ilk yutug'imni 2009-yil Birlashgan Arab Amirligida o'tgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida qo'lga kiritganman.

Chempion bilan suhbat nafaqat sport, balki kitob mutolaasi, adabiyot olami, komil inson bo'lib ulg'ayish mavzularida bo'ldi. Shunda bolajonlar qahramonimizning bolalikda she'riy mashqlar qilgani, eng sevimli darsi adabiyot fani bo'lgani haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldi. Zero, inson, avvalo, irodali bo'lmoqi, har qanday ishni sabr va qunt bilan bajarmog'i lozim.

Sayyora QODIROVA



## TANLOVLAR ZAVQLI O'TDI

Mehnat va tasviriy san'at faniga qiziq-maydigan teng-doshim bo'lmasa kerak...

April oyi ana shunday sevimli fanlarimiz oyligi deb e'lon qilingan edi. Shu sabab, maktabimiz foyesi o'quvchilar chizgan rasmlar-u yasagan buyumlari bilan bezaldi. Ayniqsa, «Dunyo bolalar nigohida», «Jaholatga qarshi ma'rifat» kabi rasmlar tanlovi, kulolchilik va qo'l mehnati buyumlari ko'rgazmasida faol ishtirok etdik. Texnologiya fani o'qituvchimiz Elmira Mirahmedova o'tkazgan ochiq dars qiziqarli o'yinlar, savol-javoblarga boy bo'ldi. Tasviriy san'at fani ustozimiz Dilobar Ortiqova esa maktabimizning faol qizlari bilan «Epli qiz – sepli qiz» nomli tadbir o'tkazdi. Bellashuvda Mahliyo Barakayeva, Zulfiya Abdusattorova, E'zoza Abduzokirova, Sevinch Toshniyozova, Ziyoda Akbarxo'jayeva, Dinara Boboqulovalar o'z epcilligini namoyish etdi.

Azizbek ABDUMALIKOV,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
202-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf  
o'quvchisi



## KITOBXON USTOZLAR BELLASHDI

**Kitob – bilim manbai. Insonning ma'naviy kamolotida uning o'rni beqiyos. Maktabimizda ustoz va o'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrini oshirish maqsadida ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda.**

Yaqinda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Feruza Bo'ronova hamda kutubxona mudirasi Shahnoza To'rayeva tashabbusi bilan o'qituvchilar jamoasi o'rtasida O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani asosida bellashuv tashkil etildi.

Ishirokchi o'qituvchilarning savol-javob va test yechish shartlari bo'yicha bilimlarini hakamlar hay'ati munosib baholab bordi. Yakunda maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nodira Sobirova 1-, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat

fani o'qituvchisi Gulshod Ahmedova 2-, geografiya fani o'qituvchisi Hulkar Bobomurodova va texnologiya fani o'qituvchisi Gulchiroy Yo'ldosheva esa 3-o'rinni egalladi. G'olib ustozlar maktab ma'muriyatining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Gulshod AHMEDOVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
43-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy  
ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

## AYVONINGGA QALDIRG'OGH KIRGANIGA SHUKUR QIL

Yetmishinchi yillar edi. Tepasida qizg'aldoqlar unadigan bomi tomimizdan butunlay voz kechib, shifrlil yangi uyimizga ko'chdik. Otarning ajoyib odatlari bor edi. Uyda usta ishlatsa, uning diyonatlisini izlashdan tolmasdi. Shuning uchun uyimizning eshiklarini o'sha davrning eng peshqadam odami mulla Mahmanazar yasagan. O'z zamonasining yetuk ziyolati bo'lgan mulla Mahmanazar diniy ilmning chuqur bilimdoni bo'lsa-da, uni elga inkor etmasdan ustachilik qilib yurardi. Besh vaqt namozini kanda qilmaydigan ustaning xatti-harakatlaridan ezgulik nuri yog'ildi. Otam har zamonda ustaga savol berib, bir yo'la uning ilmni ham «o'g'irlardi». Keyinchalik uyimizning pol va shiftini qilib beradigan Ivan ismli rus kishi keldi. U o'z kasbini nihoyatda mustahkam bajardigan xudojo'y, ko'zi to'q odam edi. Nazarimda, u bir kunini o'tkazish uchun yashayotgan odamga o'xshardi. Otamga Ivanning halolligi yoqardi. Yoshi bir joyda otam qolgan Ivan ba'zan dil xotiralarini yodga olib, so'z boshlardi. O'zining olislarda qolgan ikkita farzandi-yu ayolini eslardi. Boshida o'zbekcha do'ppini qo'ndirib olgan ustaga atrof-dagilar Ivanjon deya murojaat qilardi. Negaki, u allaqachonlar o'zbeklashib qolgandi. Uning aytishicha, oilaviy muammolari sabab, Rossiya o'rmonlarini tashlab, O'zbekistonga keladi. Unga quyoshi qaynab turgan Surxon vohasi makon bo'lib qolgandi. O'ris usta biznikida ham ancha paytlar yashab yurdi. Qo'li gul usta xizmatiga hech qachon ortiqcha haq talab qilmasdi. Odamlar sharoitiga qarab unga topganini berardi. To'y, ma'rakalarda ham odamlar uni, «Bu musofir, duosi o'tadi», deb davra to'riga o'tqazishardi. U har kuni dasturxon boshida bizni sanashga tushardi: – Odin, dva, tri ... va nihoyat chetimsatsat... Ivan qo'lini peshonasiga urib, otamga derdi: – Buncha bolani katta qilguning-cha, Sattar...

Onamga uning mana shu qilg'i yoqmasdi.  
– Bolalarimni tinimsiz sanayveradi. Ularga ko'zi tegadi, – derdi.

Otam kulib qo'yardi. Ivan baribir odatini kanda qilmasdi. Unga bizning kattakon oilamiz nihoyat sehdii ko'rinardi. Oilada o'n to'qqiz jonning osh-u ovqatini qilishdan tolmaydigan ota-onamning tilidan shukrona tushmasdi. Otam barcha qi-yinchiliklarga qanoat qilib yashagan odam edi. Ishdan horib qaytgan chog'lari shohkosani to'ldirib ichgan muzday suvi evaziga yuragining hovurini bosardi, Yaratganning bergan ne'matlariga shukur



qilardi. Otam der edi:

– Har kuni qovurdoq yegan boyni kuni – qotgan nonni sovuq suvga botirib yegan kambag'alning kuniday o'tadi. Bu dunyoda insondan yaxshilik qoladi. Rizqni yetkazuvchi Parvardigorning o'zi. Shukur qilib yashamoq kerak.

Ayvoningizga qaldirg'ochlar qanot yozib kelgan kun biz uchun bayram bo'lardi. Otam aytishlari-cha, insonlarning do'sti bo'lgan qaldirg'och tinchi bor xonadonlardagina oshyoni qurarkan. Shuning uchun biz bu qushlarning tinchini buzmasdik, ular xonalarimizda bema'lol charx urib uchardi...

Yillar otam aytganlaridek, tutqich bema'y bir zumda o'tib ketdi. Bugun yuqorida nomlari tilga olingan qahramonlarimning ko'plari yo'q. Mulla Mahmanazar allaqachonlar bu olamni tark etdi. Har kuni dasturxon boshida bizni qayta-qayta sanab turadigan Ivanjon omonatini Surxon tuprog'iga topshirdi. Ayoli va farzandlarini ko'rish baxti unga nasib qilmadi. Bugun Mashrab bobo aytganidek, «Na otam bor, na onam bor». Ota-onamizning ezgu maqsadlari bo'lgan o'n ikki farzand kattakon el bo'lib yuribmiz. U tabarruk ikki zotning farzandi va nabira-abiralari hisobga olsak, bir yuz o'ndan oshdik. Har bahor qaldirg'ochlar chug'urlab ayvonimizga kelganini ko'rsam, otamning so'zlari yodimga tushadi. Bolalik xotiralarini ko'z oldimda jonlanadi. Bugun inson qadri ulug'langan davr-u zamonlarda yashayapmiz. Oldingi davrdagi mashaqqatlarning mingdan biri ham yo'q. Hamma narsa inson manfaati uchun xizmat qilayapti. Yurtboshimiz

tinmay elning dardi bilan yonib yashash haqida so'zlayapti. Negadir to'qlikka sho'xlik deganidek, ayrim odamlar orasida mehr-oqibat yo'qolib, tubanlashib borayapti. Shukronasi yo'q, tanasini ishga bema'y yurganlarning boshi darddan chiqmaydi. Umrda qo'lga ketmon olmagan, yerga umid bilan bir nihol qadab qo'yilmagan odamlar soni qancha. Bahor bildirmaygina o'tib ketayapti. Biz nimanidir kutayapmiz. Vaqt esa bizni hech qachon kutmaydi.

Ey siz, har siqim tuprog'ini gul-u gulzorlarga aylantirayotgan bobodehqon e! Ko'ngil bo'stonida ochilgan mehr chechaklarini dunyoning tinchligiga baxsh aylagan aziz odamlar! Bilaman, ekan niholingizni shoxi sinsa, yuragingiz zirqiraydi. Qaldirg'ochning palaponi inidan tushsa, uyqungiz qochadi. Negaki, sizda yurak bor. U kun internet sovuq bir xabar tarqatdi: «Afg'onistonda yuz nafar bilim olayotgan qori talabani portlatib yuborishdi»... Eshitib, ancha vaqt o'zimga kelolmay yurdim. Badanim titradi. Nega?.. Nahot qo'li qon bo'lgan o'sha johillarning bu yorug' dunyoda qiladigan boshqa ishi yo'q.

Tojmalhalga sayohatga borgan har bir odamning ko'z oldida salkam besh asr oldin o'tgan Shohjahon gavdalanadi. Qonxo'r Gittlerning go'riga hanuzgacha malomat toshi yog'iladi. Bas, shunday ekan, yaxshilik daraxtining umri uzun bo'ladi. Bu dunyoda bir-birimizga yaxshilik qilishni, bergan noz-u ne'matlariga shukrona qilishni unutmaylik!

*Nega nolib yashaysan, berganiga shukur qil,  
Ko'zing yorug' dunyoni ko'rganiga shukur qil.*

*Shivirlagan maysalar gilam bo'ldi yo'lingga,  
Oqar suvlar uyingga kelganiga shukur qil.*

*Boshin egib daraxtlar, yuz ming noz-u ne'matlar,  
Dasturxonning to'ldirib turganiga shukur qil.*

*Bahor bilan qo'shilib darvozagga bosh urib,  
Ayvoningga qaldirg'och kirganiga shukur qil.*

*Jajjigina qo'lida yurt tuprog'i bolangni,  
Ohista qadam tashlab yurganiga shukur qil.*

*Axtamquli, ogoh bo'l, olamda yo'q bunday yurt,  
Qalam-qog'ozga ko'ngling yozganiga shukur qil.*

AXTAMQULI



# IDIOMS FOR EARTH DAY




Read and learn by heart the new idioms.

Idiom	Definition
(to) go green	To be more friendly with nature.
(to) have a green thumb	Means the ability to grow healthy plants.
Can't see the forest for the tree	Is unable to maintain a wider perspective.
Put down roots	Grow roots, settle down in new land.
Knock on wood	Let's hope.
(to) cut back on	Cut down.

## Complete the columns

Documentary film, TV, news, music, song, opera, stamp, books, coins, pictures, novel, magazine, story, newspaper, journal.



To watch TV...

To collect



To listen music...

To read

Ma'mura G'ULOMOVA

## SUPPORTING A FRIEND

Read the following situations and find the suitable definitions.



1 Your friend's relative has just died	A Cheer up.
2 Your friend is fail an examination	B What's the matter, what's up.
3 Your friend needs encouraging	C I fell a bit sorry for that.
4 Your friend has just won a football tournament	D Congratulations.
5 Your friend has been crying	E Well done, good job.
6 Your friend has just lost her job	F I am really sorry to hear that, I am so sorry.
7 Your friend can't come to your party	G That's a pity.

1- F, 2 - ..., 3 - ..., 4 - ..., 5 - ..., 6 - ..., 7 - ...

## CHECK YOUR KNOWLAGE

Complete the sentences use these prepositions.

In, at, with, of(2) on, from

- Can I have a glass of tea, please?
- Look... the moon! It is magnificent.
- We're ... holiday in Bukhara.
- Paris is the capital ... French.
- I study ... my friend.
- Jamshid isn't from Kazakhstan. He's from Uzbekistan.
- They're Swedish. They're from Switzerland.
- What is wrong ...you?

Dinora ABDULLAJONOVA

A good beginning makes a good ending.

# MUXTASARNING KO'NGIL NAVOSI

Biram mayin shabboda, Unga daraxt raqs tushar. Gul isidan mast bo'lib, Ko'kda uchadi qushlar...



Shirin hissiyotlarga boy bo'lgan ushbu misralar Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Muxtasar Karimova qalamiga mansub. Yosh iqtidor egasi qalbida she'riyatga mehri bobosi Karimqul Mavlonov uyg'otgan. Bobosiga ilk she'rini o'qib berganida, Muxtasar o'n yoshda edi. Shu voqeadan so'ng Karimqul bobo nabirasini «Bekobod ovozi» gazetasi qoshida tashkil etilgan «Ilhom» ijodkorlar klubiga olib

- Joriy yil adabiyot yo'nalishi bo'yicha Zulfiya nomidagi davlat mukofotini qo'lga kiritdim, - deydi Muxtasar ko'zlari quvonchdan porlab. - Bu nafaqat mening, balki oila a'zolarim, ustozlarim, qolaversa, Bekobod tumanidagi ijodkor qizlarning yutug'i, deb bilaman. Yuksak mukofotni shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qo'llaridan qabul qilib olganimda, qalbmida cheksiz iftixorni tuydim. Bu yuksak e'tirof kelajakda yuksak marralar sari dadil qadam tashlashimga kuch bag'ishlaydi.

U bu yerda klub rahbari Nurali Jalil qo'l ostida ijod sirlarini o'rganadi. Ko'plab ijod namunalarini «Tong yulduzi» gazetasida chop etildi. 2016-yil «Kamalak» yulduzlari festivalining nazm yo'nalishi bo'yicha viloyatda 1-o'rinni egalladi. 2016-yilda esa yosh ijodkorning «Tabiat kuychisiman» nomi bilan ikkinchi kitobi nashrdan chiqdi. Shuningdek, 2017-yil «Eng yaxshi kitobxon» tanlovining viloyat bosqichida faol ishtirok etdi.

Biz yosh iste'dod egasiga kelajakdagi ijodiy faoliyatida ulkan zafarlar yor bo'lishini tilaymiz.

Nodira YORMAT qizi

## A'LOCHILAR SINFI

Qarshi shahridagi 15-umumta'lim maktabi tashkil topganiga bu yil 43 yil to'ladi. Hozirda ta'lim maskanida Chamangul Muhammadiyeva rahbarligida 1875 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. Ayni paytda maktabda 32 ta fan va 8 ta sport to'garagi faoliyat yuritadi. Bu yerda ko'plab mamlakat va xalqaro musobaqalar g'oliblari tahsil oladi.

J u m - l a d a n , 6-«V» sinfda 31 nafar o'quvchining barchasi ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan. Sarvinoz Umrzoqova va Dilshoda Nabiyeva «Bilimlar bellashuvini» shahar bosqichida yuqori o'rinlarni egalladi.



- O'quvchilarimdan Malika Izamova karate bo'yicha Malayziyada bo'lib o'tgan nufuzli xalqaro turnirda 1-o'rinni egalladi. Suhrob Habibullayev esa karate bo'yicha mamlakat miqyosidagi musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritdi, - deydi sinf rahbari Ozoda Elmirezayeva. - Asadbek Nizomov, Fitrat Jo'rayev, Alisher Abduqodirov, Elyor Saidovlar ham chempionlardan.

Quvonarlisi, sinf qoshida «She'riyat shaydolari» to'garagi tashkil etilgan bo'lib, Umidullo, Farangiz, Jamshid, Feruza, Dilshod, Izzat, Zilola, Umida va Rasuljonlarning yozgan she'rlari sinf kitobidan joy olgan.

Nurbek QIDIRALIYEV



## JAJJI RASSOM

Men chizgan mitti surat,  
Oyimga juda yoqdi.  
Dadam suyib, erkalab,  
Yelkamga asta qoqdi.

Quvonchim cheksiz osmon,  
Hali rassom bo'laman.  
Kichik hilolman hozir,  
Bir kun Oydek to'laman.

## BO'LAJAK FUTBOLCHIMAN

Koptogimni quvaman,  
U yumalab qochadi.  
Men va o'rtoqlarimga,  
Quvonchlarin sochadi.

Birga o'ynaymiz futbol,  
Va'da beramiz sizga.  
Katta futbolchi bo'lsak,  
Teng kelmas jahon bizga!

## O'ZBEK FARZANDI

Men dadam erkasi-yu  
Oyimning quvonchiman.  
O'zbek degan millatning,  
Tayanchi, ishonchiman.

Baxtim shuki, tug'ildim,  
O'zbekiston yurtimda.  
Bobolar avlodiman,  
Dunyo mening kaftimda.

**Sarvinoz QOSIMOVA,**  
Farg'ona viloyati,  
Yozyovon tumanidagi  
11-umumta'lim maktabi  
o'qituvchisi

– Bolajonlar uchun yozilgan ertak, hikoya va masallar uchun, eng avvalo, qog'ozga rahmat deyishimiz kerak, – debdi yozuv.




Shukrullo ABDULLAYEV

## AHILLIK

– Yo'q, – debdi qog'oz e'tiroz bildirib, – buning uchun qalamga rahmat aytishimiz lozim.

– Lekin biz kitob yozgan yozuvchining mashaqqatli mehnatini unutib qo'ydik, – deyishibdi ular bir-birlariga nigoh tashlab.

– Hammamiz birga bo'lganimiz, yozuvchilarimiz ijod qilgani uchun bolalar sevib o'qiydigan go'zal she'rlar, afsonaviy ertaklar, hikoya va boshqa ko'plab asarlar yoziladi, – debdi nihoyat kitob donolik bilan.



Tong... Quyosh ufqdan bosh ko'tardi. Uning hayotbaxsh zarrin nurlari borliqni turfa ranglarga bo'yadi. Go'zallik uyg'ondi. Qushlar yangi kun boshlanganidan shodon, chug'ur-chug'ur qo'shiqlarini boshladilar. Ona tabiat o'zgacha nafasot va beg'uborlik k a s b etdi. Yam-yashil maysalar,

opa farzandlari Aziz, Anvar va qizi Gulchehra bilan bog' o'rtasidagi supada nonushta qilisharkan. – Har bir tongni umid bilan kutib olsang, yaxshi niyatlar qilsang, boshlanayotgan kuning barakali bo'ladi.

Shu vaqt ularning yonidagi daraxt tepasida birdaniga qushlarning chug'ur-chug'uri avjiga chiqdi. Ular nimanidir o'zaro bahslashayotgandek bir-biriga gal bermay chug'ur-lab sayrashardi.

– Diqqat bilan tinglang-chi, ular o'z tillarida nimalar deyishayapti? – farzandlaridan so'radi Gulnora opa.

Aziz tonggi uyqusi hali ochilib ulgurmagan, erinibgina gap boshladi:

– Ular tong yaxshi-ku, ammo ertalabki shirin uyqudan uyg'onish hech kimga yoqmaydi, deyishayapti.

– Shu qushlarning ham shovqini jonga tegdi. Har kuni ertalab ahvol shu, – norozi ohangda gap boshladi Anvar. – Ularning nima deya-yotganini bilib bo'larmidi?!

Shu vaqt jajji qizaloq Gulchehraning gapi ularni hayratga soldi:

– Menimcha, ular bizga: «Assalomu alaykum, sizlarga yaxshi kayfiyat tilaymiz, ishlaringizga omad va faqat a'lo baholarga o'qing!» deb yaxshi niyat bildirishayapti.

Onasi qizining bu gapidan to'lqinlanib ketibdi. Qizchani erkalab, peshonasidan o'pib, asta bag'riga bosibdi.

## TONGNI QUTLAGAN QUSHLAR



nafis gullar, mevali daraxtlar mayin shamolda asta tebranib, quyoshni qarshi olishdi. Asalarilar bol yig'ish uchun bog'larga, qo'y-echkilar esa tog'larga yo'l oldilar.

– Tong naqadar go'zal va yoqimli, – dedi Gulnora

– Tura qol, Azizjon, men ancha yaxshiman, sen darsingga kech qolma, – degan so'zlaridan uyg'onib ketdi.

aytar ekan, ko'ziga yosh keldi. Sardor uzoq o'ylanib, so'ng vazmin ohangda, «Ko'p siqilma, bir ilojini qilarmiz. Pul topsam, albatta, olib boraman. Mana ko'rasan, xolam, albatta, tuzalib ketadilar», deya do'stining ko'nglini ko'tardi.

## CHIN DO'ST

Azizbek tuni bilan bemor onasining boshida mijja qoqmay chiqdi. Tonggacha uch marta «Tez yordam» kelib-ketdi. Halima xola shifokorlarning har gal «Opajon, kasalxonaga yetishingiz kerak», degan maslahatlaridan bosh tortdi. Chunki o'g'lini yolg'iz tashlab ketishga ko'zi qiymadi. Bu yorug' o'lamda shu o'g'lidani boshqa su-yanchig'i yo'q.

Oila farroshlik bilan kun kechirayotgani sabab, shifokorlar yozib bergan qimmat dorilarga puli yetmadi. Shuning uchun ham Halima xola barcha og'riqlarni oyoqda o'tkazib yubordi. Oxiri dard o'zini ko'rsatdi. Endi davanmasa bo'lmaydi.

Onasining kasali kundan kun zo'rayib borayotganini ko'rib, Azizbekning yuragi ezildi. Shu tobda otasining yo'qligi bilindi. Og'riqdan ingrab yotgan mehribonining dardli ko'zlariga boqib, ich-ichidan ezildi, xo'rliki kelib, yig'ladi. Tongga yaqin esa ko'zi ilindi. Onasini horg'in ohangda:



turadi», deya og'zini to'ldirib maqtandi.

Azizbek o'zini majburlab, arang jilmaydi. Do'stining kayfiyati yo'qligini sezgan Sardor, darsdan keyin uni chetga olib, buning sababini so'radi. Azizbek onasining dardi kuchayib borayotganini

Sinxonaga kirganida, o'rtoqlari bir joyda to'planib, nimanidir tomosha qilayotgan edi. Ular Azizbekning kelganini sezmad ham. Sinfning eng «boyvachcha»si Sardor qo'lidagi qimmatbaho telefonini maqtanar, bolalar unga havas bilan boqardi. Azizbekka ko'zi tushgan Sardor, «Qara, o'rtoq, akam Angliyadan yubordi. Eng so'nggi rusumdagisi, juda qimmat turadi», deya og'zini to'ldirib maqtandi.

qo'shnilaridan, tanish-bilishlaridan qarz so'rab ko'rdi. Lekin kimdan pul so'ramasin, har gal bir xil javob eshitdi: «Hozir pul yo'q edi, bo'lsa, albatta, beraman».

U kechga yaqin uyiga quruq qo'l bilan qaytdi. Bu dunyoda qalbini yoritadigan hech bir ilinj qolmaganday edi.

Onasi yotgan uyga kirganida, qo'shnisi Nigora opa Halima xolaga ukol qilayotgan ekan. Ne ko'z bilan ko'rsinki, xona o'rtasidagi xontaxta ustida onasiga kerak bo'lgan barcha dorilar turardi. Azizbekning hayron bo'lib turganini ko'rgan Nigora opa, «Baraka topsin do'sting Sardorjon», dedi...

Azizbek ertasi kuni maktab darvozasi yonida Sardor bilan ko'rishayotib, uni mahkam bag'riga bosdi. Do'stiga minnatdorlik bildirayotganida, ko'zlariga yosh keldi. Ma'lum bo'lishicha, kecha Sardor akasi unga sovg'a qilgan qimmatbaho telefonini sotib, puliga Habiba xola uchun dorilar xarid qilibdi.

Azizbek dunyoda shunday saxiy, mehribon do'sti borligidan qalbi quvonchga to'ldi.

Jamoliddin ABDULLAYEV



**April oyining o'rtalarida olis Tunis mamlakatida taekvando bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tdi. Quvonarlisi, ushbu nufuzli musobaqada mamlakatimiz terma jamoasi ham munosib ishtirok etib, yakunda bitta oltin, ikkita kumush va bitta bronza medalini qo'lga kiritdi.**

## YOSHLAR JAHON MAYDONIDA

E'tiborlisi, avvalgi chempionatlarda sportchilarimiz bu qadar yuqori natijalarni qo'lga kiritmagan edi. Jumladan, 1998-yil Rashid Ahmedov o'smirlar o'rtasidagi jahon birinchiligida kumush medalga sazovor bo'lgan bo'lsa, 2014-yil Valentin Xegay bronza medalini taqdirlangan. Bu katta g'ala o'zbekistonlik dayan ustalari 4 ta medal bilan umumjamo'a hisobida yuqori o'rinlardan birini zabt etdi.

**Qizlar** o'rtasidagi bahslarda -52 kg vazn toifasida o'z mahoratini sinovdan o'tkazgan Ozoda So-birjonova va -45 kg vazn toifasida o'g'il bolalar o'rtasida Amirbek To'rayev finalga qadar bo'lgan mashaqqatli yo'lni mardonavor bosib o'tib, shohsupaning ikkinchi pog'onasidan joy egalladi. Yoshlar o'rtasidagi bahslarda esa -51 kg vazn toifasida yana bir umidli atletimiz Ulug'bek Rashidov bronza medalini qo'lga kiritdi. Garchi, chempion bo'la olmagan bo'lsa-da, ushbu taekvandochilarimizning bir-biridan ajoyib janrlari muxlislarda iliq taassurot qoldirdi.

Shuningdek, Ulug'bek Rashidov o'smir-

lar o'rtasidagi bellashuvlarda ham ona Vatanimiz sharafiga munosib himoya qildi. U turnirda -48 kg vazn toifasida barcha raqiblarini ortda qoldirib, yakunda shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi. Ushbu yuksak natija bilan u Argentinaning Buenos-Ayres shahrida bo'lib o'tadigan o'smirlar o'rtasidagi Olimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Aziz o'quvchi, oralaringizda sport bilan



Sa'dullo TURSINOV

muntazam shug'ullanayotgan, ustoz-murabbiylarning qimmatli maslahatlariga amal qilib, ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritayotgan iqtidorli yoshlar juda-juda ko'p. Istagimiz, sog'lom turmush tarzi barchangizning hayot mazmuningizga aylansin!

## HARBIYLAR – YURT TAYANCHI

**O'zbekiston yoshlar ittifoqi Pastdarg'om tuman Kengashi tashabbusi bilan 1-BO'SMda «Burgut» harbiy-sport musobaqasi o'tkazildi. Bellashuvda tumandagi 13 ta kasb-hunar kolleji o'quvchilari o'zaro kuch sinashdi.**

Merganlik, to'siqdan oshish, minalashtirilgan hududda harakatlanish, safda qo'shiq aytish, raqib jamoaning bayrog'ini qo'lga kiritish singari shartlarda puxta harbiy tayyorgarlikka ega ekanini namoyish etgan Torariq kasb-hunar kolleji «Qalqon» jamoasi yakunda g'olib bo'ldi.

«Eng kuchli jamoa» deb Do'montepa kasb-hunar kolleji o'quvchilari, «Eng kuchli qiz» O'g'iloy Abdullayeva, «Eng jasoratli ishtirokchi» sifatida Ozod Ibodullayev topildi. Torariq qurilish kasb-hunar kolleji «Qalqon» jamoasi musobaqaning viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Pastdarg'om tuman Kengashi raisi Vohidjon Jo'raqulov g'oliblarga diplom va esdalik sovg'alari topshirdi.

**Mohiniso BOBOQULOVA,**  
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani tibbiyot kolleji o'quvchisi

## TO'MARIS IZDOSHLARI

**Yaqinda maktabimizda «To'maris izdoshlari» deb nomlangan sport musobaqasi o'tkazdik.**

Unda 1–10-sinf qizlari faol ishtirok etdi. Qatnashchilar arqon tortish, uzunlikka sakrash, uzoq masofaga yugurish kabi bir-biridan qiziqarli shartlar bo'yicha o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazdi. G'olib qizlar yakunda maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Bunday musobaqalarning tez-tez o'tkazilishi, hech shubhasiz, qizlarimizni sportga keng jalb etishga zamin yaratadi. Ishonamanki, kelajakda maktabimizdan ham Osiyo va jahon chempionlari yetishib chiqadi va ular To'marisning haqiqiy izdoshi ekanliklarini isbotlaydi.

**Munira QO'ZIBOYEVA,**  
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi  
45-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

**Maktabimizning 2-«V» sinf o'quvchisi Nozima Valiyeva sportning shaxmat turiga qiziqadi.**

## BARCHAGA NAMUNA

U 2016-yil Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar shaxmat maktabiga qabul qilindi. Hozirda ustoz Gulruxsor Esonboyeva ko'magida shu sport sir-asrorlarini o'rganmoqda.

Nozima 2016-yil O'zbekiston ochiq chempionatida 2-o'rinni egalladi. 2017-yil Erondagi Osiyo chempionatida 2- va 3-o'rinlarni qo'lga kiritib, yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tardi. Shuningdek, Qozog'istondagi «Maralsoy» kubogida 1-o'rinni zabt etdi.

– Bunday o'quvchilar bizning faxrimiz va g'ururimiz, – deydi maktab direktori Anagul opa Sobirova.

**Gulnoz SULTANOVA,**  
Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi  
305-umumta'lim maktabi o'qituvchisi





Tong otdi. Sobirning onasi o'g'lini uyg'otish uchun xonasiga kirdi.

– Tura qol, bolam, tez-roq qimirla, maktabga kech qolasan.

Sobir erinib-gina uyg'ondi. Yuz-qo'lini yuvmay dasturxon tepasiga kelgan edi, opasi dakki berdi:

– Bu ni-masi, yana suv sovuvligi bahona bo'ldimi? Bor, muzdekki-na suv uyg'uni tarqatadi.

U esa opasiga kech qolayotganini aytdi.

Sobir maktabga borganida, dars boshlanib bo'lgan edi. Yolg'on bahonalari ustoz ishonqiramaygina sinfga kirgizdi. U o'rniga kelib o'tirdi. Aksiga olib, shoshilganidan ruckasi ham uyda qolibdi.



## SOBIRGA SABOQ BO'LDI

– Mana, Sobir, menda ikkita ruchka bor edi, olaqol, – dedi partadoshi Komila. Sinf-doshining so'zidan Sobir quloqlarigacha qizarib ketdi. Uyalganini hech kim sezmasa-da, o'zi uchun saboq bo'ldi. Chun-

ki kecha Komila undan rangli qalamlarini berib turishini iltimos qilganida, u «yo'q» degan edi. Boyoq qalamlari ko'p bo'lsa-da, bergisi kelmagandi. U kech bo'lsa-da, yomon odati uchun o'zini koyidi. Boshqa bunday qilmaslikka so'z berdi.

**Dilbaroy TURSUNOVA,**  
Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi 32-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi

## TOPISHMOQLAR



Bizni deb kuyib, yonib,  
Yulduzlardan qizg'anib.  
Mehri daryo yagonam,  
Bu mening (...)

Oilamiz farishtasi,  
Uyimiz sarishtasi.  
Hamma uchun bir dona,  
Budir mehribon (...)

## QUTLOV

Bobo, bugun qutlug' kuningiz, Beshinchi bor muchal to'yingiz. Buvim bilan birga bo'lingiz, Yuz yoshda ham yayrab yuringiz.

Qalbingizda mehr-u muhabbat, Shuncha yillar qildingiz toqat. Buvim bilan birga bo'lingiz, Ming yoshda ham yayrab yuringiz.

**Laziza AXMATOVA,**

Jizzax shahar, 26-IDUMning 8-«A» sinf o'quvchisi

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

### «KO'K»LI SO'ZLAR TOPQIRLIK MASHQI

Shaklga quyida ta'riflari bayon etilgan «Ko'k» bilan boshlanuvchi so'zlarni yozish bilan mashqni hal eting. 1. Taomga ishlatiladigan oshk'k o'simlik. 2. Qovunning o'rtapishar, sershira navi. 3. Chotqol irmog'i, Bo'stonliq tumanidan oqib o'tuvchi daryo. 4. Bahor faslining yana bir nomi. 5. Payariq tumani hududida joylashgan qadimiy shahar xarobasi. 6. Dukkakli don navi. 7. Manzarali o'simlik sifatida o'stiriladigan, yog'ochi binokorlikda ishlatiladigan daraxt. 8. Qozog'iston Respublikasidagi shahar. 9. Yashil-ko'k patli, asosan, Afrikada qishlaydigan parranda. 10. Lochinlar oilasiga mansub yirtqich qush. 11. Ta'mi nordon ho'l meva. 12. Osiyo va Afrikaning tropik qismida yashovchi hasharotxo'r qush. 13. Qashqadaryo viloyatining Bahoriston tumanidagi neft-gazkondensat koni.

Topshiriqni hal etgandan so'ng, shaklning o'ng tomonidagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali «Ko'k» bilan boshlanuvchi tarixiy obida va respublikamizdagi nomdosh oltin va marmar konlarini bilib olasiz.

1	K O ' K	7/8	6/5	4-1	3/4
2		1/4	12/6	13/9	10/8
3					
4			8/3	10/2	7/8
5					5/6
6					2-5
7					5/4
8					8/7
9					11/4
10					
11					
12					
13					

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

## Pazanda qizgal




## BALIQLI TAOM

Baliq va baliq mahsulotlaridan tayyorlangan taomlar inson organizmini kerakli yog' va vitaminlar bilan boyitadi. Bugun sizlarga baliqdan yana bir taom tayyorlashni o'rgatamiz. Buning uchun bir dona o'rtacha kattalikdagi laqqa baliq, tuz, limon, 2-3 dona kartoshka, sarimsoqpiyoz, ziravorlar va ko'katlar kerak bo'ladi.

### Tayyorlanishi:

baliqning keraksiz qismlari olib tashlanadi. Ik-kala tomonini ozgina tuzlab, ichiga somoncha shaklida to'g'ralgan kartoshkani, so'ngra maydalangan sarimsoqpiyoz va to'g'ralgan ko'katlarni joylaymiz. Unga ham ozroq tuz sepiladi. Baliq qornini tish tozalagichlarda mahkamlab, falga qog'oziga o'raymiz, so'ngra 180 darajada qizdirilgan gaz pechiga qo'yamiz. Baliq 30 daqiqa davomida pishib yetiladi. Uni o'zingiz istagan sous bilan dasturxoniga tortishingiz mumkin.

Sizga yoqimli ishtaha!



## FOYDALI MASLAHATLAR

Bugungi sabog'imiz baliq taomi bilan bog'liq bo'lgani uchun quyidagi maslahatlarimiz asqotadi, degan umiddamiz:

- 1 Baliq xarid qilganda uni polietilen paketlarda saqlamang. U havo o'tkazmaganligi uchun mahsulot tezda aynib qolishi mumkin.
- 2 Baliqni tozalashda uning tangachalari har tomonga uchib ketmasligi uchun uni biroz suvga solib qo'ying va tozalashda qo'lingizni tuzga botirib oling. Shunda baliq qo'lingizdan sirg'alib chiqib ketmaydi.
- 3 Agar baliq sirka solingan sovuq suvda bir soatcha ushlab turilsa, uning hidi yo'qoladi.

NARGIZA tayyorladi

<p><b>Muassis:</b> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi</p>	<p><b>Bosh muharrir</b> Feruza ADILOVA</p>	<p><b>TAHRIR HAYATI:</b> Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Alisher SA'DULLAYEV, Laziz TANGRIYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)</p>	<p><b>Navbatchi muharrir</b> Axtamquli KARIMOV</p> <p><b>Rassom</b> Feruzbek KAMOL o'g'li</p> <p><b>Sahifalovchi-dizayner</b> Shaxobiddin MAXMADIYEV</p>	<p>«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 66666 Buyurtma - V 1489</p>	<p>Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08</p>
	<p>Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.</p>	<p>23-aprel 2018</p>			